

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 aprel holatiga 2763,1 ming kishini tashkil etib, 2019 yilda 10,4 ming kishiga yoki 1,0 %ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1784,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,6 %), qishloq aholisi soni 978,9 ming kishini (35,4 %) tashkil etdi.


E'tibor bering: 2019 yil yanvar-mart

- Aholi soni **10,4 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **13,8 ming nafami** tashkil etdi.
- **3,2 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **3,6 mingta nikoh** va **0,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Namangan viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-mart oylarida)




Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi



Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyati bo'yicha 1 kv.kmga 371,2 kishi, aholining eng zich joylashuvi Namangan shahri (1 kv.kmga 4098,0 kishi), Namangan (862,8 kishi), To'raqo'rg'on (812,1 kishi) tumanlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, aksincha holat Pop tumanida (74,1 kishi) va Mingbuloq tumanida (166,9 kishi) to'g'ri kelmoqda.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni (2019 yil 1 aprel holatiga)



Demografik holat

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-mart oylarida 13,8 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,3 promilleni tashkil etdi hamda 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,6 promillega oshganligi (2018 yilning yanvar-mart oylarida 18,7 promille bo'lgan) kuzatildi.


O'g'il bolalar:
7,1 ming nafar



Qiz bolalar:
6,7
ming nafar



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti
(2019 yil yanvar-mart)



Demografik holat

Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-mart oylarida 3,2 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,8 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega ko'paygan (2018 yilning yanvar-mart oylarida 4,5 promille bo'lgan).


Erkaklar:
1,6
ming kishi



Ayollar:
1,6
ming kishi



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti
(2019 yil yanvar-mart)




Demografik holat

2019 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,8 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,5 %i - o'simtalardan, 3,5 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,5 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,6 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 13,8 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 189 nafarni tashkil etib, ularning 27,0 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 34,9 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 23,8 %i - tug'ma anomaliyalardan, 3,2 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,8 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan va 5,3 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2019 yil yanvar-mart holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)




Demografik holat

Nikoh. 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,4 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Namangan tumani (47,3 %), Uchqo'rg'on (42,8 %) va Kosonsoy tumanlariga (35,6) to'g'ri kelmoqda.


Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti
(2019 yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,673 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Chortoq (2,2 marta), Uchqo'rg'on (39,4 %), Mingbuloq (37,0%), Uychi (35,9%) va Pop (32,1 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti
(2019 yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Migratsiya. 2019 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1,4 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 1,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,3 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 0,5 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar-mart	2019 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	1,2	1,4
Ko'chib ketganlar	1,7	1,7
Migratsiya saldosi	-0,5	-0,3

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Namangan shahrida (minus 1,6 ming kishi), To'raqo'rg'on va Chust tumanlarida (minus 1,1 ming kishi) va Norin (minus 0,4 ming kishi) qayd etildi.

Migratsiya saldosinging ijobiy darajasi Yangiqo'rg'on tumanida (plus 0,6 ming kishi) kuzatildi.



Demografik holat

Namangan shahridagi demografik holat. Namangan viloyatining markazi Namangan shahrining doimiy aholisi soni 2019 yil 1 aprel holatiga 614,7 ming kishini tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 12,4 ming kishiga yoki 2,0 %ga

Namangan shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan, promille)



2019 yilning yanvar-mart oylarida 3,5 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 23,2 promilleni tashkil etdi va 2018 yilga nisbatan 1,5 ga (2018 yilning mos davrida 21,7 promille bo'lgan) o'sdi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida 789 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 91 nafari 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soniga to'g'ri kelmoqda. O'lim koeffitsienti 5,2 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,3 ga ko'paydi (2018 yilning mos davrida 4,9 promille bo'lgan).

Markaz aholisining tabiiy o'sishi 18,0 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,2 ming kishiga o'sishi (2018 yilning mos davrida 16,8 ming kishi bo'lgan) kuzatildi.

FHDYO organlarida 2019 yilning yanvar-mart oylarida 482 ta nikoh va 152 ta nikohdan ajralishlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 3,2 promilleni tashkil qilib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 ga kamaydi (2018 yilning mos davrida 3,3 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,0 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega (2018 yilning mos davrida 0,8 promille bo'lgan) o'sgan.